

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYI KONFERENSIYA


YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ

2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR BATAREYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

 TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

 +998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

 WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ

 MAY №52

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
8-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-8**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-8**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 52-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 14 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Vafoqulova Go'zal Ochilovna ADABIYOT DARSLARIDA TARIQAT ARBOBI VA MUTASAVVUF SHOIR SO'FI OLLOYOR IJODI TAHLILI	7
2. Abdullayeva Umida IJROVIY LIRIKA – OBRAZLI XARAKTER IFODASI	9
3. Курбонова Феруза Илхомовна ЁЗУВЧИ ХУРШИД ДЎСТМУҲАММАД АСАРЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ	12



АДАБИЁТ

ADABIYOT DARSLARIDA TARIQAT ARBOBI VA MUTASAVVUF SHOIR SO'FI OLLOYOR IJODI TAHLILI

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik
litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon +998(97)9252885

Annotatsiya: Maqolada turkiy va forsiy tillarida ijod qilgan So'fi Olloyor ijodining asosiy yo'nalishi, islom ma'rifatini keng xalq orasiga yoyishi va tasavvufning insoniy kamolot bilan bog'liq g'oyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shayxlar maktabi, islom ahkomlari, tariqat talablari, insoniy komillik, valiulloh, tariqat.

So'fi Olloyor— tariqat arbobi va mutasavvuf shoir. Shayxlar maktabi va Buxorodagi jo'ybor shayxlari dargohida ta'lim olgan. O'z davrining barcha asosiy ilmlarini egallagan, arab va forsiy tillarini o'rgangan. Buxoro xoni Abdulazizxon tomonidan boj mahkamasiga to'ra etib tayinlangan. Darveshona fe'l, shoirona ko'ngil sohibi bo'lgan So'fi Olloyor bu lavozimdan tezda iste'fo berib, o'z davrining mashhur shayxi Navro'zga shogird tushgan, tariqat talablarini bajarib, shayxlik martabasiga ko'tarilgan, valiulloh (karomat sohibi) bo'lib yetishgan. Turkiy va forsiy tillarida ijod qilgan So'fi Olloyor ijodining asosiy yo'nalishi islom ma'rifatini keng xalq orasiga yoyish va tasavvufning insoniy kamolot bilan bog'liq g'oyalarini targ'ib-tashviq qilishdan iborat. U «Maslak ul-muttaqin» («Taqvodorlar maslagi»), «Murod ul-orifin» («Oriflar murodi»), «Mahzan ul-mute'in» («Itoatkorlar xazinasi») asarlarini forsiy, «Sabot ul-ujizin» («Ojizlar saboti»), «Favz un-najot» («Najot tantanasi») masnaviylarini turkiy tilda yaratgan. Forsiy va turkiyda bitilgan boshqa she'rlari ham mavjud. «Mevalar munozarasi» nomli manzuma ham unga nisbat beriladi. So'fi Olloyorning shoh asari «Maslak ul-muttaqin» bo'lib, 12 ming bayt, 135 ta katta-kichik bobdan iborat. Ilohiy ma'rifatning badiiy talqiniga bag'ishlangan bu asar el orasida shuhrat tutganidan so'ng do'st-u yaqinlari undan turkiy tilda ham shunday bir kitob yozishni iltimos qiladilar. Bunga javoban u «Maslak ul-muttaqin»ni birmuncha qisqartirib, o'zbek tilida nazmda bitgan va unga «Sabot ul-ujizin» deb nom bergan. O'zbek falsafiy didaktik adabiyotining yetuk namunasi bo'lmish ushbu asarda tasavvuf ta'limotining ma'naviy-axloqiy masalalarini keng yoritish bilan u turkiy tasavvuf adabiyoti rivojiga katga hissa qo'shgan. Asarlarida islom ahkomlari, tariqat talablari, insoniy komillik shartlarini birma-bir ta'riflab bergan. Axloqiy-ta'limiy ahamiyati jihatidan, xususan, «Maslak ul-muttaqin» va «Sabot ul-ujizin» asarlari maktab va madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o'qitilib kelgan. Uning diniy-tasavvufiy ruhdagi pandu hikmatga yo'g'rilgan asarlari nafaqat Turkiston, balki Qashqardan tortib Etel (Volga), Yoyiq (Ural) daryolari vohalari, Hojitarxon (Astraxan), Bulg'or, Orenburg va boshqa mintaqalarda yashovchi xalqlar orasida ham keng tarqalgan. Ular ko'p nusxalarda ko'chirilgan. 19-asrning oxirlariga kelib esa Toshkent, Qozon, Boku, Istanbul va boshqa shaharlarda toshbosma yo'li bilan bir necha marta bosilib chiqqan. So'fi Olloyor asarlari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan, ularga bag'ishlab sharhlar yozilgan, lug'atlar tuzilib, u qo'llagan tasavvufiy istiloh-timsollar keng sharhlangan.



**Ushbu gaplar proyektor orqali namoyish etilib,
o`qituvchi tomonidan izoh beriladi.**



Test asosida ishlash

- Adabiyotda xonliklar davri o`zbek adabiyoti qaysi davrlar oralig`ini o`z ichiga oladi?
A) XV-XIX asrlar B) XVI asrdan XIX asrning I yarmi C) XVII asrdan XIX asrning I yarmigacha
D) XVIII asrdan XIX asrning I yarmigacha
- Qo`qonga bostirib borib mashhur shoira Nodirabegimni farzand-u nabiralari bilan hammaning ko`zi o`ngida vahshiylarcha qatl ettirgan amir nomi qaysi qatorda to`g`ri berilgan?
A) Buxoro amiri Muhammad Rahimxon B) Xiva xoni Abulg`ozi Bahodirxon C) Ming urug`idan bo`lgan Shoxruhbiy D) Buxoro amiri Nasrulloxon
- Xiva xoni Abulg`ozi Bahodirxonning qaysi asarlari “Boburnoma”dan keyingi o`zbek adabiyotidaga eng noyob hodisa bo`lib kirib kelgan?
A) “Ansof us-Salotin”, “Shajarayi-tarokima ” B) “Muntahab ut-tavorix”, “Shajarai-turk” C) “Shajarai-turk”, “Shajarai-tarokima” D) “Shajarai-turk”, “Shohnomai-nusratpayom”
- Abulg`ozi Bahodirxonning qaysi fazilati bilan Boburdan keyingi ikkinchi hukmdor shaxs deb ta`riflaymiz?
A) yozgan ikki buyuk asari uchun B) har jihatdan yetuk inson, tadbirkor podshoh, tengsiz olim va sarkarda bo`lgani uchun C) o`zi tirik va soppa-sog` ekanligida taxtini o`g`liga topshirgani uchun D) davlat boshqaruvidagi ishlari uchun
- XVIII asrda Xivada Munis va Ogahiy qanday asarini yaratdi?
A) “Firdavs ul-iqbol”, “Baxt bog`i”, “Riyoz ud -davla”, “Natoyij ul-fikr” B) “Natoyij ul-fikr”, “Gulshani davlat”, “Iqboli Fuzuliy” C) “Firdavs ul-iqbol”, “Baxt bog`i”, “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix” D) A, B

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

- ”Adabiyot” (B.Qosimov va boshqalar) 10-sinf uchun darslik. Toshkent. 2004-yil.
- Mallayev N. O`zbek adabiyoti tarixi. -Toshkent, «O`qituvchi», 1976.
- B.To`xliyev, R.Mirsamiqova, O. Ametova. Adabiyot II. Toshkent



IJROVIY LIRIKA – OBRAZLI XARAKTER IFODASI

Abdullayeva Umida
QarDU tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada yangi o'zbek she'riyatidagi ijroviy lirika namunalarida ilgari surilgan g'oyalar, falsafiy fikr-mulohazalar Abdulla Oripov ijodi misolida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: ijroviy lirika, lirik qahramon, immanent, lirik she'r, ijro mahorati, kredo.

Badiiy so'zning ruhoniyyat iqlimlari manzarasini chizish, ma'naviy-intellektual madaniyat sahifalarini gavdalandirish, tabiat-jamiyat-inson aloqalarining hissiy tafakkur va to'lqinlarini, kechinmalar tarixini yaratishga qaratilgan tamoyil mazkur sohadagi ilmiy-nazariy izlanishlar mazmunini tashkil etadi.

Adabiy asarning qaysi tur va janrlarga bo'linishidan qat'iy nazar, u insonning ichki olamini, qalb va ruhiyatidagi o'zgarishlarni, murakkab his-kechinmalarni teran tadqiq etilishiga alohida e'tibor qaratadi. Lirik qahramon ruhiy dunyosi tasviri va tahlili lirikaning sof lirik, falsafiy-psixologik va voqeband ko'rinishlarida keng namoyon bo'ladi.

“Pafossiz, ehtirossiz asar na tomashabinni, na o'quvchini qiziqitmaydi, hayajonga solmaydi. Asarda hayajon bo'lishi kerak. Tabiatan qahramonlariday ehtirosli bo'lgan shoir tomashabinlarni ham haqiqatan hayajonlantira oladi,- deydi Arastu. O'zi g'azablana oladigan kishi tomashabinlarni ham haqiqiy g'azablantira oladi”. [1;103b]

Shoir Abdulla Oripov ijodi o'quvchida hayajon paydo qiladigan va uni ehtirosga soladigan, badiiy tafakkurning yuksak namunasi bo'lgan she'r va dostonlardan iborat.

Adabiyotshunos olim D.Quronov o'zbek she'riyatidagi qo'llanilgan janrlarni turlarga ajratish jarayonida avtopsihologik lirika, ijroviy lirika, tavsifiy lirika, voqeband lirika kabi turlarga ajratadi. Abdulla Oripov she'rlarni tahlil qilish jarayonida uning ijodi mavzular ko'lami nihoyatda boy ekanligi, yuqoridagi turlarning har biriga xos ko'plab namunalarini ko'rishimiz mumkin.

Biz e'tiborni she'rlardagi ijroviy lirika namunalariga qaratamiz. “Ijroviy lirikada shoir o'zga shaxs ruhiyatiga kirib, o'zganing tilidan mushohada yurutadi, natijada, o'sha shaxs she'rning lirik qahramoniga aylanadi”. [3;202-b]

Ijroviy lirika namunalari rus va ingliz she'riyatining nodir namunalarida ko'plab uchraydi. Xususan, rus adabiyotida Nekrasov, Pushkin she'rlarida ko'rishimiz mumkin. XIX asrning 2-yarmidan Angliya va AQSh adabiyotida ham rivojlandi.

“Ijodkor tarixiy shaxs hayoti bilan bog'liq mayda tafsilotlarga e'tibor bermasligi mumkin, - deb yozadi A.Oripov “She'r – zakovat” maqolasida. – Menimcha, ijodkor tarixiy shaxsга murojaat etganda, birinchidan, o'sha shaxsni, ikkinchidan, nima sababdan unga e'tibor berganligini bilishi kerak”. [4;124-b]

Shu ma'noda, ijroviy lirika namunalaridagi lirik qahramonlar asosan, tarixiy shaxslardan tanlanadi va ijodkor nega aynan bu obrazga murojaat etganligi she'r mazmunida ochib beradi.

Ijroviy lirikaning qahramoni bir paytda ikkita vazifani bajara oladi, ya'ni ong subyekti va tadqiqot obyektiga sifatida ko'rinadi. Bu o'rinda xarakter va taqdir obrazning obyektiga aylanadigan hikoya lirikalaridan farqli o'laroq, shoirning qadriyatlar tizimi va nutq uslubiga e'tibor qaratiladi. A.Oripov she'riyatidagi “Hamza nidosi”, “Zardusht so'zi”, “Musofir”, “Ulug'bek faryodi”, “Ota tilagi”, “Ustoz ogiti”, “Bozorchilar” kabi she'rlarni ijroviy lirika namunalari sifatida qayd etish o'rinli. Bunday she'rlarni semantik xususiyatidan kelib chiqib quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

1) asarning lirik qahramoni kelib chiqishi, madaniy saviyasi, mashg'uloti va biografik jihatidan shoir bilan umumiy o'xshashligi bo'lgan she'rlar. Bu turkumga “Hamza nidosi”, “Furqat nidosi” (A.Oripov), “Thokurning oxirgi she'ri”, “Muktibodh duosi” (R.Parfi); “Turdi Farog'iy”, “Maqsud Shayxzoda”, “Usmon Nosirning so'nggi tushi”, “Oybekning so'nggi she'ri”, (U.Azim), “Yassaviy” (E.Shukur), “Jek London”, “Ma'ruf Jalil nasihati” (Y.Eshbek), “Bobur so'zi” (M. Kenjabek), “Shukur Xolmirzayev”, “Basyo nidosi”, “Shoir nidosi” (O'.Haydar).

2) asarning lirik qahramoni kelib chiqishi, madaniy saviyasi, mashg'uloti va biografik jihati shoirnikidan farqli she'rlar: “Sultonmurod”, “Hamlet” (E.Vohidov), “Bozorchilar”, “Zardusht so'zi”, “Musofir” (A.Oripov), “Ona duosi” (M.Ali), “Suflyor monologi”, “XX asr Otello”,



(U.Azim); “Uchinchi qiz”, “Yolg‘iz ayol xati” (H.Xudoyberdiyeva), “Ona duosi”, “Namoz Pirmqul o‘g‘li” (Y. Eshbek).

3) turli jismlar, o‘simlik va hayvonlar tilidan aytilgan she‘rlar: “Yelim aytar” (E.Vohidov), “Zangori og‘ochman” (R.Parfi), “Bir daraxtning so‘nggi qo‘shig‘i” (U.Azim), “Keksa daraxtning deganlari”, “Haykalning aytganlari” (H.Xudoyberdiyeva), “Eski chiroq qo‘shig‘i” (O‘.Haydar) kabi she‘rlar.

Adabiy qahramonlar hayotiyiligi, real voqelik bag‘rida unib-o‘tib, badiiy asarlar bag‘riga ko‘chib o‘tganligi bilan, ongli va g‘oyaviy jihatdan qatiy o‘z nuqtayi-nazariga egaligi bilan ajralib turadi,-deb ta‘kidlaydi, professor E.Sidorov.

Ijroviy lirika turiga mansub she‘rlarda ijodkor asosan, tarixiy shaxslar va asarlar qahramonlari tilidan o‘z tuyg‘ularini zamon va makon uyg‘unligida ifodalaydi. Bu esa, bunday she‘r qahramonlari o‘rtasidagi dramatik munosabatlarni o‘z g‘oyalari nuqtai-nazaridan va uning o‘ziga xos tasvir chizig‘i doirasida qayta ko‘rib chiqadigan qahramon turishini ko‘rsatadi.

“Hamza nidosi” she‘rining lirik qahramoni madaniy saviyasi va mashg‘uloti jihatidan shoirga yaqin, ammo, ularning faoliyatini ajratib turadigan jiddiy sabablar mavjud. XX asr boshlarida yangi o‘zbek adabiyoti maydoniga kirib kelgan jadid shoirlari ichida Hamza Hakimzoda Niyoziy ham bor edi. U o‘z ijodi va faoliyatini milliy ma‘naviyatni yuksaltirishga, ilm o‘rganishni targ‘ib etishga yo‘naltirmoqchi bo‘ldi, ammo davr fabulasi bunga to‘sqinlik qildi.

“Hamza she‘rlarida davr voqeligi aks etmadi emas, aks etdi. Lekin qanday? Menimcha, bu she‘rlarda voqelik alohida shaxs-Hamza nigohi orqali aks etdi. Ya‘ni, ularda she‘rning javhari bo‘lgan “men”ni lirik “biz” siqib chiqardi. Bu esa, voqelikning bir yoqlama ko‘rilishi, va baholanishiga olib keldi. Yo‘qsa, Cho‘lponni o‘rtagan “ko‘gli kabi yiqiq uylar, qishloqlar”u “nayza boshidagi go‘daklar”ni Hamza ham ko‘rgan edi. Ammo, Cho‘lpondan farq qilib, “biz” safida kurashga kirgan Hamza bunday hollarga “kurash qurbonsiz bo‘lmaydi” aqidasiidan kelib chiqib yondashadi. Natijada ijtimoiy dard shaxsiylanmaydi, Hamzaning she‘rlari chinakam ijtimoiy lirika darajasiga ko‘tarilolmay, mafkuraviy she‘riyat darajasida qolib ketadi. Boshqacha aytsek, Hamza inqilobdan keyin shaxs-shoir maqomiga ko‘tarila bilmadi”. [6;109-b]

Shoirlikning eng oliy maqomi bu-shaxs-shoir darajasiga ko‘tarilish ekanligini anglagan Abdulla Oripov “Hamza nidosi” da lirik qahramon obrazida oliy maqomga ko‘tarila olmagan shoir xitobini ko‘rsatadi.

Hamzadirman, boqmagaysiz
Siz malomatlar bilan,
Baytlar aytdim el-u yurtga
Men ibodatlar bilan. [2;321-b]

“Xalq ommasidan yetishib chiqqan tarixiy shaxslarning fikrlash tarzi hamda faoliyatida millat taqdiri bilan davr falsafasi, jamiyat psixologiyasi badiiy asarlar to‘qimasiga singib ketyapti. Bu hol olis o‘tmish mavzusiga bag‘ishlangan asarlarning tarixiylik prinsipini tashkil etadi”, deb yozadi adabiyotshunos Z.Nurmuxammedova.

Hamzaning “shonli inqilob”dan umidi katta bo‘lgani, ammo inqilob u kutganidek natija bermagani va yolg‘onchi g‘oyalarga aldanib qolgani ham ta‘sirli misralar orqali ifodalanadi:

Men Vatanni birlashuvga
Chorlagan shoir edim,
Kutgan edim ushbu kunni
Sabr-u toqatlar bilan. [2;321-b]

Shoir Hamzaning iztiroblarini ifoda etar ekan, uning “charog”ni izlaganini, lekin zulmat unga qarshi chiqib, falokatlar iskanjasida qolganini ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, o‘zi bilmagan narsaga o‘ta ishonishning oqibatini ishonarli tarzda ifodalaydi:

Vo darig‘o, kimsalarning
Qahriga bo‘ldim duchor,
Tosh boshimga tosh yog‘ildi
Ming kasofatlar bilan. [2;321-b]

Abdulla Oripov bugun xalq ichida Hamzaning obro‘-hurmati garchi boshqa jadid shoirlariniki singari bo‘lmasada, uning xalqiga nisbatan ezgulikni sog‘inishini tasvirlaydi, bu ijroda shoirning “men”i Hamza tilidan ifodalanadi.

Erta uchgan qush misoli
Sayd bo‘lib ketdim, vale,



Yurtim, aslo ayri tushma

Sen saodatlar bilan. [2;321-b]

Bu o‘rinda shoir Hamzaning hayot yo‘lini o‘z g‘oyalari nuqtayi -nazaridan qayta ko‘rib chiqib tasvirlagan lirik qahramonini ko‘ramiz.

“Shoirning xalq uchun aytadigan gapi bo‘lmog‘i zarur, - deb yozadi Abdulla Oripov “She‘r – zakovat” maqolasida. Tarixga tarix bo‘lganligi uchun murojaat qilish foyda keltirmaydi. U bizga bugun hamda kelajak uchun kerak”. Tarix hamisha ibrat, hikmat, saboqlar maktabidir. [4;126-b]

Abdulla Oripovning “Zardusht so‘zi” she‘ri ham ijroviy lirika namunasi bo‘lib, unda shoir tarixiy obrazni tanlaydi. Mazkur she‘r poetik mazmuni jihatidan lirik qahramonning kelib chiqishi, madaniy saviyasi, mashg‘uloti va biografik jihati shoirnikidan farqli she‘rlar sirasiga kiradi, unda birinchi diniy kitobni yaratgan Zardusht prototipi tilidan rol ijro etiladi.

Yashagan Zardushtman, donishmand zotman,

O‘lmas g‘oyam bilan mangu hayotman.

Yaxshi va yomonni ayladim hisob,

Va bitdim “Avesto” nomli bir kitob. [2;404-b]

Ushbu she‘rda milliy madaniyat va tarix voqeliklari reallashtiriladi, Zardusht tilidan ijro qilinadi. Unda “yovuzlikni yerga urgan”, “ezgulik maqomini yuksak ko‘rgan”, “toj-u taxt, davlat but bo‘lsa, mamlakatning albatta yashnashi”ga ishongan qahramon ijrosi ko‘rsatiladi. Hozirgi zamon bilan milliy qadriyatlar va an‘analarning Zardusht va “Avesto” orqali abadiylik xususiyatlariga egaligi “Zardusht so‘zi”da mahorat bilan ochib beriladi:

Ko‘xna saltanatdan yodgor bo‘lsin to,

Sizga qoldirganim ushbu “Avesto”. [2;404-b]

Akademik Izzat Sulton: “...Xalqimiz uch baloning – milliy birlik hissining sustligi, yolg‘on internatsionalizm va oddiy qonxo‘rlikning dardini tortdi. Har biri do‘zax azobiga teng azoblarni torta-torta biz beli bukilgan, qurbi qurigan, bugungi yangi ozodlik sharoitida ham qullik ta‘zimidan hali-hanuz qaddini to‘la ko‘tarib ololmayotgan va shu sababli bitta dahshatli baqiriqdan tirqirab ketadigan olomonga aylanib qolganmiz. Shu sharoitda Abdulla Oripovdek qudratli iste‘dod so‘zining boy mazmuni, ruhi va ehtirosi(pafosi) bizning dardimizga malham beradi, belimizga quvvat kirgizadi, ojiz ko‘zlarimizga nur ato etadi”. [5;4-b]

Abdulla Oripov asarlari asosini miliy ruh va xalqchilik tashkil etadi. Tarixiy davr oldidagi mas‘uliyat va tarixiy davr uchun mas‘ullik, xalq va Vatan taqdiri uchun javobgarlik hissi, millat va Vatan oldidagi yuksak burch – shoir asarlaridan bo‘y ko‘rsatib turgan farzandlik munosabatining mazmunini belgilaydi.

Uning shoirona mahorati shundaki, yuqorida ko‘rganimiz har ikkala she‘rda tasvirlanayotgan obrazlarni xalqqa tanish bo‘lgan qahramonlardan tanlab, o‘quvchini tarixga olib kiradi, ularning hayot yo‘lini esga soladi, va bu qahramonlarning zamon va makonda tutgan o‘rni, qadr-qimmatidan kelib chiqib, xulosani o‘quvchiga qoldiradi. She‘rning nomlanishini o‘ziyoq, o‘quvchi ko‘z o‘ngida tarixiy haqiqatni jonlantiradi. “Hamzaning nidosi” hamda ezgulikni targ‘ib qilgan “Zardust so‘zi” o‘quvchini sergaklikka chorlab, hayotda “nido” qilib qoladigan emas, o‘z “so‘z”ini ayta oladigan shaxs bo‘lishga yo‘naltiradi. Zero, Abdulla Oripovning o‘zi ta‘kidlaganidek, qudratli tarixga voris bo‘lgan, o‘z o‘tmishidan g‘ururlanishga haqli o‘g‘il-qizlar ulug‘vor ma‘naviy buloqlardan tafakkur chanqoqligini qondirib, buyuk qahramonliklarga yuz burishadi. Bunday kamolotga yetishgan avlodlarning ertangi kuni yorg‘, manglayi yarqiroq, kelajagi, albatta, buyuk bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arastu . “Poetika” Yangi asr avlodi 2016
2. Abdulla Oripov Tanlangan asarlar 2019
3. D.Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” 2014
4. Oripov Abdulla. Ehtiyoj farzandi, 126-bet
5. Sulton Izzat. Talantning birlashtiruvchi qudrati. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, 1991, 29-mart, 4-bet
6. Ulug‘bek Hamdam “Yangi o‘zbek she‘riyati” Toshkent “Adib” nashriyoti 2012



ЁЗУВЧИ ХУРШИД ДЎСТМУҲАММАД АСАРЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Қурбонова Феруза Илҳомовна

Ўзбек тили ва адабиёт магистр,
“ТИҚХММИ” МТУнинг Қарши
ирригатсия ва агротехнологиялар институти
feruzaq42@gmail.uz

АННОТАЦИЯ: Х.Дўстмуҳаммаднинг бадиий сўзга, адабиётга муносабати ўзига хос, бу ҳолат табиийки, унинг ҳикояларига ҳам аллақон ўз муҳрини босиб улгурган. Ижодкорда шахс бутунлиги жуда муҳим, чунки чала одам, эътиқоди ва қарашларида собит тура олмайдиган қаламкаш яхлит асар ярата олмайди. Х.Дўстмуҳаммаднинг бадиий сўзга, адабиётга муносабати ўзига хос, бу ҳолат табиийки, унинг ҳикояларига ҳам аллақон ўз муҳрини босиб улгурган.

КАЛИТ СЎЗ: умуминсонийлик, олийжаноб туйғулар

ABSTRACT: Kh. Dostmuhammad's attitude to the artistic word and literature is unique, this situation has already left its mark on his stories. The integrity of the individual is very important in the artist, because an immature person, a penman who cannot stand firm in his beliefs and views cannot create a complete work. Kh. Dostmuhammad's attitude to artistic words and literature is unique, and naturally, this situation has already left its mark on his stories.

KEY WORDS: humanity, noble feelings

АННОТАЦИЯ: Отношение Х. Достмухаммеда к художественному слову и литературе уникально, эта ситуация уже наложила отпечаток на его рассказы. Целостность личности очень важна в художнике, потому что незрелый человек, писатель, не стойкий в своих убеждениях и взглядах, не может создать законченного произведения. Отношение Х. Достмухаммеда к художественному слову и литературе уникально, и, естественно, эта ситуация уже наложила свой отпечаток на его рассказы.

КЛЮЧОВИ СЛОВА: человечность, благородные чувства

Ўзбек бадиий насри мустақиллик йилларида мавзу, шакл жиҳатидан маълум маънода янгиланди. Бунинг сабаблари, биринчидан, илгари таққидда бўлган жаҳон адабиётининг энг сара намуналари билан яқиндан таниши имкони пайдо бўлиши, иккинчидан, ижтимоий тузум ўзгариши билан ижодкорларнинг тафаккур тарзининг ўзгаришидир. Айтиш мумкинки, энг аввало, воқеликни бадиий идрок этиш янгича тус олиши билан адабий қаҳрамонлар табиати ва уларни тасвирлаш йўллари ҳам ўзгара бошлади. Фарб адабиётининг символизм, сюрреализм каби адабий оқимларининг ўзлаштирилиши, Франс Кафка, Альбер Камю, Жан Поль Сартр, Луис Борхес, Жеймс Жойс ижодий тажрибасининг ўқиб-ўрганилиши адабиётимиз хазинасини мутлақо бир-бирига ўхшамаган асарлар билан бойитди. Назар Эшонкул, Луқмон Бўрихон, Асад Дилмурод, Н.Отахонов, Олим Отахон ва яна кўплаб ёзувчилар ўзларининг қатор ҳикоялари билан адабиётимизга янги нафас, янги ҳаво олиб кирдилар. Хуршид Дўстмуҳаммад ана шу ижодкорлар орасида салмоқли ҳикоялари билан алоҳида ажралиб туради. “Бизни улғайтирган болалик”, “Кўчиш”, “Ҳашарчилар”, “Алам”, “Оқ либос”, “Қазо бўлган намоз”, “Тўхтабойнинг бойликлари”, “Маҳзуна”, “Жажман”, “Отамнинг бойликлари”, “Ибн Муғанний”, “Беозор қушнинг қарғиши”нинг сингари ҳикоялари инсон умрининг бир парчаси каби китобхон кўз ўнгида навдаланади ва ёдда қолади. Бунинг сабабларидан бири, ёзувчининг услуби ва ўз-ўзини таҳрир малакасининг такомил билан боғлиқ. “Миллатнинг менталитетидаги сифатий ўзгаришлар сезилиши жуда қийин бўлганидек, унинг исқанжасидан қутула олмаган, шуни тўғри ва маъқул деб ҳисоблаган ёзувчи ва шоирлар бор”, – деб ёзади Х. Дўстмуҳаммад. Унинг фикрича, услуб ўзгармаса, дунёқараш, ҳаёт мураккабликларини бадиий идрок ва ифода этиш йўсинлари ўзгармаса, шу йўлда турфа тажрибаларга қўл урмаса, бундай ёзувчи нафақат миллий адабиётда, лоақал, ўз ижодида ҳам бирор янгилик яратиши амримаҳол.¹ Адолатли ва топиб айтилган бу фикрни тасдиқламасликнинг иложи йўқ. Машҳур “Услуб – бу мен” деган ақидани эсласак, услуб ўзгариши бадиий ижодда жуда кўп нарсани белгилаши

1 Х.Дўстмуҳаммад. Беозор қушнинг қарғиши. Т.:Шарқ, 2006. 4-б.



аёнлашади. Фитратнинг “Адабиёт қодалари” асарида бу борада махсус тўхталиниб, услубсиз шоирларнинг истеъдодсиз бўлиши таъкидланган. Адабиётшунос Д.Тўраев ана шулардан келиб чиққан ҳолда, Х.Дўстмуҳаммаднинг “болалик чоғлари ҳақидаги ҳикояларидан тортиб “Махзуна”, “Жимжитхонага йўл”, “Жажман” каби мустақиллик даври ўзбек ҳикоячилиги тараққиёт тамойилларини ўзида мужассам этган асарларгача муаллиф тинимсиз ижодий изланишда эканини”, – қайд этади.¹

Х.Дўстмуҳаммаднинг бадиий сўзга, адабиётга муносабати ўзига хос, бу ҳолат табиийки, унинг ҳикояларига ҳам аллақон ўз муҳрини босиб улгурган. Ижодкорда шахс бутунлиги жуда муҳим, чунки чала одам, эътиқоди ва қарашларида собит тура олмайдиган қаламкаш яхлит асар ярата олмайди. Халқ дарди, миллатнинг ташвишлари, оддий меҳнаткаш одамларнинг ҳаётини чуқур билмай туриб, умуминсонийлик, олийжаноб туйғулар ҳақида гапириш ҳеч қачон ўзини оқламайди. Инсон қалбига доир асарларгина одамлар юрагидан жой олишга қодир. “Адабиётнинг шодлиги ҳам, ташвиши ҳам «мен»нинг қувончу аламлари билан бирга – шулар орасида яшайди. Мунаққид “мен”и адабий ҳодисаларимиз учун бамисоли кенг майдонга айланади.

Бағри кенг “мен”га нақадар оғир! Бағри кенг “мен”ни тушуниш нақадар қийин!.. мураккаб ёки феномен шахсларни тушунмоқ наҳот мураккаб ёки феномен шахсларгагина насиб этса?!²

Ҳақиқатдан ҳам, муаллиф ўзи ёзаётган воқеликда яшай олсагина, ўша воқеа-ҳодисани ўз руҳиятига кўчириб, ундан ларзага туша олсагина, китобхон руҳиятида янги бир минтақа ярата олади. “Мен”– Х.Дўстмуҳаммад асарларининг бош қаҳрамони, у ўзининг барча асарларида воқеларни баён қилишни эмас, балки инсон қалбини тафтиш қилишни лозим топади. Қаҳрамонни оқ ёки қора рангда эмас, инсон сифатида тасвирлайди, шунинг учун унинг асарларида қаҳрамонлар хато қилади, ниманидир тушунмайди, ожизлик қилади... буларнинг барчаси ҳаётга реал муносабатдан келиб чиқади, натижада асар қаҳрамонлари китобхон билан тезда тил топишади. Ёзувчи ўзлигини танишга уринаётган инсонни ҳаёт йўлларининг турли чорраха ва кесимларида, турли ҳолатларда тасвирлар экан, уларни оқлаш ва қоралаш йўлидан бормайди, воқеликка аралашмасдан кузатувчи, гоҳида ровийликни маъқул кўради. Энг муҳими, яшаётган ҳар бир инсон турфа хил фикрлардир, энг муҳими, ана шу фикрларнинг тўғри ёки нотўғрилигида. Инсонларнинг келажаги уларнинг фикрларига боғлиқ. Негаки, фикр ҳатти-ҳаракатга айланади, ҳар бир инсон ўз ҳаракатлари учун тақдирланади ё аксинча жазога тортилади. Ҳамма нарсанинг асосида фикр ётади. Ёзувчи шунинг учун инсоннинг ички оламидаги фикрлар жангини, унинг талотумларини, топиш ва йўқотишларини одатда, бир инсон тақдирини бутун жамият билан уйғунликда акс эттиради. Унинг ёзишича: “Ўз “мен”ини тушуниб етиш инсониятни ҳалокатдан асраб қолувчи буюк гўзалликни англашга ва ҳис қилишга олиб келади. Сўз санъати усталари бу муқаддас вазифани амалга оширувчилар сафининг олдида борадилар”.³

Ёзувчи бадиий ижоднинг моҳиятини ва ўзининг вазифасини мана шундай тушунади ва шу ақидага оғишмай амал қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Тўраев Д. Ўзбек романларида бадиий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Т.: Университет, 2001. –166 б.
2. Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. –Т.: Янги аср авлоди, 2004. –127 б.
3. Тўраев Д. Ҳаёт ва сюжет. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 1984. –311 б.
4. Тўраев Д. Рангин тасвирлар жилоси. Т.: Академнашр, 2014. – 200 б.
5. Тўраев Д. Ўзбек тетралогияси. –Тошкент: Akademnashr. 2017. –Б. 212

1 Тўраев Д. Рангин тасвирлар жилоси. Т.: Академнашр, 2014.55-56-б.

2 Х.Дўстмуҳаммад. Қалбнинг маърифатли кирралари.// Ёшлик. 1987. 12-сон, 69-б.

3 Х.Дўстмуҳаммад. Англаш лаҳзалари.// Ёшлик. 1983. 61-б.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000